

**REYTING TIZIMI ASOSIDA RAQAMLI FISKAL BOSHQARUVNING YANGI PARADIGMASI: ROSSIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI****A NEW PARADIGM OF DIGITAL FISCAL GOVERNANCE THROUGH THE RATING SYSTEM: THE EXPERIENCE OF RUSSIA AND UZBEKISTAN****1Abdullahayev Zafarbek
Safibullayevich***¹PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi
(DSc). E-mail: zafarbek.abdullahayev555@gmail.com***Annotatsiya
Annotation**

Uzb. - Maqolada soliq to'lovchilarni reyting asosida baholash masalasi yoritilib, Rossiya Federatsiyasi tajribasiga asoslangan reyting modeli doirasida yuridik shaxslarning moliyaviy holati, soliq intizomi va institutsional ishonchliliginin baholash mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda reyting indikatorlari bilan fiskal intizom o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rGANILIB, O'zbekiston sharoitida reyting tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Eng. - The article examines the issue of evaluating taxpayers based on a rating system, analyzing the mechanisms for assessing the financial condition, tax discipline, and institutional reliability of legal entities within the framework of a rating model developed based on the experience of the Russian Federation. The study explores the interrelation between rating indicators and fiscal discipline, and practical recommendations are proposed for improving the rating system under the conditions of Uzbekistan.

**Kalit so'zlar:
Keywords:**

❖ soliq to'lovchilar reytingi, fiskal boshqaruv, soliq intizomi, moliyaviy barqarorlik, skoring modeli, yuridik shaxslar, soliq xavfi, raqamli monitoring.

❖ taxpayer rating, fiscal management, tax discipline, financial stability, scoring model, legal entities, tax risk, digital monitoring.

Kirish.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida fiskal boshqaruvning samaradorligi davlatning iqtisodiy barqarorligi hamda ijtimoiy islohotlarning muvaffaqiyati bilan chambarchas bog'liqidir. Soliq ma'muriyatichiligi endilikda nafaqat soliq yig'imini ta'minlash, balki iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va halol tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi kengroq vazifalarni ham o'z zimmasiga olmoqda. Shu nuqtai nazardan, soliq to'lovchilarning xulq-atvori va fiskal intizomini baholovchi reyting tizimlari zamонави fiskal siyosatning ajralmas tarkibiy

qismiga aylanmoqda.

Rossiya Federatsiyasi tajribasi reyting mexanizmlari orqali soliq intizomini kuchaytirish, soliq tekshiruvlari sonini kamaytirish va fiskal monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini bergenini ko'rsatmoqda. Biroq mavjud tizim hali ham soliq xavfi va fiskal intizomga ta'sir etuvchi barcha omillarni to'liq qamrab olmayapti.

Shu bois, tadqiqotning dolzarbligi yuridik shaxslarni reyting asosida baholash metodikasini o'rganish, reyting indikatorlari bilan fiskal intizom o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash hamda milliy reyting tizimini xalqaro tajriba asosida

takomillashtirish zaruratidan kelib chiqadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Soliq to'lovchilar reytingi tizimi fiskal boshqaruvning nisbatan yangi, ammo, samaradorlik jihatidan yuqori bo'lgan vositalaridan biridir. Ushbu yondashuv so'nggi yillarda xalqaro miyosda soliq intizomini oshirish, ixtiyorilik tamoyiliga asoslangan soliq siyosatini qo'llab-quvvatlash hamda raqamli transformatsiyani jadallashtirish vositasi sifatida keng e'tirof etilmoqda. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda reyting tizimining nazariy asoslari, uning iqtisodiy samaradorligi va fiskal xulq-atvorga ta'siri turli nuqtai nazardan chuqur tadqiq etilgan.

James Alm o'zining "Tax Compliance and Administration" nomli tadqiqtida soliq to'lovchilarning xulq-atvoriga ishonch, qonunchilikka muvofiqlik, shaffoflik va rag'batlantirish mexanizmlarining o'zarot ta'sirini tahlil qiladi. Uning fikricha, soliq ma'muriyatichiligi jazolash funksiyasigina emas, balki profilaktik choralar ko'rish va soliq to'lovchilarni ijobjiy fiskal xulq-atvorga undovchi motivatsion vosita sifatida ham faoliyat yuritishi zarur [1].

Keen va Slemrod (2017) "Optimal tax administration" asarida soliq boshqaruvining strategik jihatlari, xususan, riskka asoslangan yondashuv va soliq to'lovchilarni segmentatsiya qilish zaruratini asoslab bergan. Ular reyting tizimini manzilli nazoratning funksional mexanizmi sifatida talqin qiladi. [2]

Rossiya Federatsiyasi tajribasida ushbu tizim amaliyotga keng joriy etilgan bo'lib, Federal soliq xizmati tomonidan ishlab chiqilgan "Yuridik shaxslarni baholash metodikasi" yuridik shaxslarning moliyaviy, soliq va institutsional barqarorligini balli skoring asosida aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu metodika ikki bosqichli baholashga asoslangan bo'lib, majburiy filtrlash va diskret skoring elementlarini o'z ichiga oladi [3, 4].

O'zbekiston tajribasida 2024-yildan boshlab joriy etilgan "Tadbirkorlik

subyektlarining barqarorlik reytingi" milliy fiskal siyosatda shunday reytinglash mexanizmlariga ilk qadam sifatida qaralmoqda [5]. Biroq, mavjud tizim soliq xavfini emas, balki umumiyligi iqtisodiy faoliyatni baholovchi indikatorlarga tayanadi [6]. Shu bois, Rossiya Federatsiyasi amaliyotiga joriy etilgan skoring modellari bilan qiyosiy tahlil olib borish va milliy tizimni takomillashtirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar, jumladan, OECD, IMF va World Bank tomonidan e'lon qilingan soliq boshqaruvi va reyting tizimlari bo'yicha qo'llanmalar ushbu yo'nalishda global yondashuvlar, indikator tanlash mezonlari va fiskal monitoringda reyting tizimining ahamiyati haqida nazariy asoslar beradi.

Shuningdek, so'nggi yillarda mahalliy tadqiqtchilar tomonidan soliq intizomi, fiskal xatti-harakat, risk mezonlari va raqamli boshqaruv vositalarini baholash bo'yicha boshlang'ich ilmiy ishlanmalar amalga oshirilgan bo'lsada, reyting tizimini chuqur iqtisodiy va metodologik jihatdan asoslovchi tadqiqtolar hali yetarli emas.

Tadqiqt natijalari shuni ko'rsatadiki, reyting tizimi soliq boshqaruvining nafaqat texnik, balki iqtisodiy va institutsional transformatsiyasiga olib keluvchi samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston uchun ushbu tajribani joriy etishda xorijiy modellardan o'rganish bilan birga, milliy sharoit va xususiyatlarga mos metodologiyani ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqatgina shu yondashuv fiskal intizomni mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda reyting tizimini kuchli boshqaruv instrumentiga aylantira oladi.

Tadqiqt metodologiyasi.

Ushbu tadqiqtoda soliq to'lovchilar reytingi tizimini shakllantirish, baholash indikatorlarini tahlil qilish va ularni O'zbekiston milliy fiskal siyosatini

takomillashtirishga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Metodologiya nazariy, huquqiy va amaliy asoslarning uyg'unlashgan holda o'rganilishini ta'minladi. Tadqiqotning nazariy bazasi sifatida fiskal boshqaruv, soliq intizomi, institutsional iqtisodiyot va raqamli transformatsiya sohalaridagi ilg'or nazariyalar hamda reytinglash tizimlariga oid xalqaro yondashuvlar tahlil qilindi. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati tomonidan ishlab chiqilgan "Yuridik shaxslarni baholash metodikasi" asosiy model sifatida tanlandi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Prezident qarorlari, soliq ma'muriyatshiligi va raqamli boshqaruvga oid amaldagi huquqiy hujjatlar asosida reyting tizimini milliy sharoitda joriy etish imkoniyatlari o'rganildi [6, 7].

Rossiya tajribasiga asoslangan reyting modeli asosida tahliliy mezonlar to'plami shakllantirildi. Har bir indikator bo'yicha diskret skoring modeli qo'llanilib, subyektlar "1" yoki "0" ball asosida baholandi. Yakuniy reyting ballari asosida kompaniyalar shartli toifalarga (A, B, C, D) ajratildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Zamonaviy soliq ma'muriyatshiligida tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini baholash va ularni soliq intizomi, moliyaviy shaffoflik hamda fiskal majburiyatlarga rioya qilish darajasiga ko'ra differensiallashtirish fiskal siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Juhon tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish, "halol biznes" uchun xavfsiz va raqobatbardosh muhit yaratish imkoniyati yuzaga keladi.

Shu jihatdan, yuridik shaxslar faoliyatini reyting asosida baholash bo'yicha soliq organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar soliq tizimini raqamlashtirish, shaffoflikni oshirish va soliq to'lovchilarning fiskal xulq-atvorini ixtiyoriy tartibda tartibga solishning zamonaviy vositasi sifatida

namoyon bo'lmoqda. Bu tizimda soliq yuklamasining darjasasi, hisobot intizomi, moliyaviy barqarorlik, faoliyatning davomiyligi, elektron raqamli hujjat aylanishi, ijtimoiy mas'uliyat, xodimlar soni va tarkibi kabi ko'plab kompleks indikatorlar inobatga olinadi. Reyting bahosi esa, o'z navbatida, soliq imtiyozlari, tekshiruvdan ozod etish, QQSni tezkor qaytarish, davlat xaridlarida ishtirok etish va boshqa rag'batlantiruvchi choralar bilan bevosita bog'lanadi.

Masalan, Rossiyada 2022-yildan boshlab "Vijdonli soliq to'lovchilar reytingi" ni shakllantirish tashabbusi ilgari surildi va Federal soliq xizmati tomonidan yuridik shaxslarni balli baholash asosida differential soliq nazorati amalga oshirilmoqda. Mazkur tizim doirasida kompaniyalarning moliyaviy holati, soliq yuklamasi, ijtimoiy sug'urta ajratmalari, xarajatlar tuzilmasi va soliq xavf darjasini kabi ko'rsatkichlar asosida baholovchi algoritmlar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, Yevropa ittifoqi davlatlari, AQSh, Yaponiya, Koreya, Xitoy kabi mamlakatlarda ham xuddi shunday reytinglash yondashuvi soliq xattiharakatlarini tartibga solish vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda [10].

So'nggi yillarda Rossiyada soliq boshqaruvining sifat jihatdan yangi bosqichi boshlangan bo'lib, bunda fiskal shaffoflikni ta'minlash, ixtiyoriy to'lov intizomini oshirish va soliq nazoratini manzilli asosda tashkil qilish maqsadida yuridik shaxslarning ishonchliligi darajasini reyting asosida baholash tizimi keng joriy etilmoqda. Jumladan, 2023-yilda Rossiya Federal soliq xizmati (FNS) tomonidan "Yuridik shaxslarni baholash xizmati" (Сервис оценки юридических лиц) ishga tushirildi. Ushbu servis kompaniyalarning moliyaviy holati, fiskal xulq-atvor va boshqa muhim mezonlar asosida ularning umumiyligi ishonchlilik darajasini baholashga qaratilgan bo'lib, bu tizim Rossiya FNSning 2023-yil 24-martdagi № ED-7-31/181-son buyrug'i bilan tasdiqlangan metodik asosga tayangan holda amalga oshiriladi [11]. Ushbu metodika yuridik

shaxslarning moliyaviy va xo'jalik faoliyatini baholash, ularning ishonchlilik darajasini aniqlash hamda soliq organlari va kontragentlar uchun tavsiyalar berish maqsadida ishlab chiqilgan.

So'nggi yillarda Rossiyada fiskal siyosatni raqamlashtirishga oid islohotlar doirasida soliq organlarining nazorat va tahlil funksiyalarini avtomatlashtirishga qaratilgan yangi yondashuvlar shakllanmoqda. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati tomonidan joriy etilgan yuridik shaxslarni baholash tizimi bu boradagi muhim tashabbuslardan biridir. Mazkur tizim kompaniyalarning soliq yuki bajarilishi, moliyaviy-xo'jalik barqarorligi va ularning faoliyatidagi shaffoflik darajasini aniqlash orqali soliq xavfini baholashga xizmat qiladi. FNS tomonidan yuridik shaxslarni baholash metodikasi ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun metodologik asos sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, 2025-yil 27-yanvardagi o'zgartirishlar bilan takomillashtirilgan [5]. Metodika ikki bosqichli yondashuvni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda yuridik shaxsning soliq qonunchiligi va moliyaviy intizomga muvofiqligi majburiy mezonlar asosida baholanadi, ikkinchi bosqichda esa kompaniya faoliyati zo ballik tizim asosida puxta tahlil qilinadi.

Baholash tizimi yuridik shaxslarning soliq majburiyatlariga rioya etish darajasi, pul oqimlari ko'rsatkichlari va umumiylar ishonchlilik profilini kompleks tahlil qilishga yo'naltirilgan. Mazkur baholash jarayoni Federal soliq xizmatining avtomatlashtirilgan axborot tizimi "Nalog-3" platformasining bir qismi bo'lgan yuridik shaxs soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali amalga oshiriladi. Baholash natijalari kompaniyaning individual mezonlar asosida to'plagan ballari, moliyaviy-xo'jalik ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlangan xulosalardan iborat bo'lib, ular elektron shaklda, QR-kod bilan himoyalangan va vakolatli soliq inspeksiysi tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan rasmiy hujjat

ko'rinishida shakllantiriladi. Bu baholov natijasi yuridik shaxs tomonidan kontragentlar, banklar, investorlarga taqdim etilishi mumkin bo'lgan ishonchlilik sertifikati sifatida foydalaniлади.

Yuridik shaxslarni baholash metodikasi ikki asosiy bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqichda kompaniyaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati, soliq intizomi va tashkiliy-huquqiy holati chuqur tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv soliq xavfini differensial baholashga, shuningdek, ehtimoliy soliq tavakkalchiliklarini aniqlash va tartibga solishga xizmat qiladi.

Birinchi bosqichda majburiy mezonlar asosidagi tekshiruv olib boriladi. Bu bosqichda kompaniyaning baholash jarayoniga qo'shilishi yoki chiqarib tashlanishini belgilovchi 14 ta majburiy mezon asosida tekshiruv o'tkaziladi. Ushbu mezonlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Kompaniyada tugatish, bankrotlik, tashqi boshqaruv yoki nazoratdagi korxona maqomi mavjud emasligi;
- Davlat ro'yxatida kompaniya haqida noto'g'ri yoki ishonchsiz ma'lumotlarning mavjud emasligi;
- QQS deklaratsiyalarida boshqa soliq to'lovchilar bilan solishtirilganda ziddiyatli yoki mos kelmaydigan operatsiyalar aniqlanmagan bo'lishi;
- Soliq qarzlari kompaniya aktivlarining 1 foizidan va 3 000 rubl miqdoridan oshmagan bo'lishi;
- Kompaniya rahbarlari, ta'sischilari yoki vakolatli shaxslari, korrupsiya yoki ekstremizm bilan bog'liq ro'yxatlarda mavjud emasligi;
- Kompaniyada bank hisobvaraqlari bloklanmagan, soliq hisobotlari to'liq va o'z vaqtida topshirilgan bo'lishi.

Agar yuridik shaxs ushbu majburiy mezonlarning hech bo'limganda bittasiga mos kelmasa, u holda baholash jarayoni to'xtatiladi va kompaniya skoring baholash bosqichiga o'tkazilmaydi. Ikkinci bosqich "Ball" asosida baholash (skoring modeli) bosqichidir. Bu bosqichda kompaniyaning moliyaviy-xo'jalik holati, soliq yuklamasi, likvidlik, foyda

koeffitsiyentlari, ishchi kuchining barqarorligi va tashkiliy ishonchlik darajasi aniq mezonlar asosida baholanadi. Har bir mezon uchun o yoki 1 ball belgilanadi, kompaniya mezonga mos bo'lsa — 1 ball, aks holda — o ball bilan baholanadi.

Mamlakatda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini baholovchi avtomatlashtirilgan reyting tizimini shakllantirish doirasida 22 ta mezondan iborat kompleks indikatorlar majmuasi ishlab chiqilgan (1-rasm). Mazkur mezonlar bevosita iqtisodiy barqarorlik, fiskal xulq-atvori, moliyaviy shaffoflik, mehnat resurslari bilan ishlash madaniyatini baholash imkonini beradi. Quyida har bir guruh bo'yicha metodologik va tahliliy yondashuvlar bayon etiladi.

Moliyaviy barqarorlik tadbirkorlik

subyekti tomonidan majburiyatlarni to'liq va o'z vaqtida bajarish qobiliyatini, shuningdek, ichki va tashqi moliyaviy muvozanatini ifodalaydi. Reyting tizimida bu yo'naliш bo'yicha beshta asosiy ko'rsatkich aniqlangan. Joriy likvidlik (≥ 1) va tezkor to'lovga layoqatlilik (≥ 1.1) koeffitsiyentlari korxonaning qisqa muddatli qarzlarini yopish imkoniyatini baholasa, moliyaviy avtonomiya koeffitsiyenti (≥ 0.25) korxonaning o'z mablag'lariga tayanishini ko'rsatadi. Foizlarni qoplash koeffitsiyenti (≥ 2.5) tashqi moliyalashtirishdan foydalanishda xavf darajasini baholaydi, aktivlar rentabelligi esa ($\geq 10\%$) korxona aktivlaridan foydalanish samaradorligini o'lchaydi. Ushbu mezonlar asosida moliyaviy sog'lomlik darajasi to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

Moliyaviy barqarorlik

- Joriy likvidlik koeffitsiyenti (≥ 1);
- To'lovga layoqatlilik koeffitsiyenti (≥ 1.1);
- Moliyaviy avtonomiya koeffitsiyenti (≥ 0.25);
- Foizlarni qoplash koeffitsiyenti (≥ 2.5);
- Aktivlar rentabelligi ($\geq 10\%$).

Soliq yuklamasi va intizomi

- QQS va foyda solig'i bo'yicha soliq yuklamasi ($\geq 75\%$ mintaqaviy o'rtacha darajaga nisbatan);
- NDFL va boshqa soliqlар asosida soliq yuklamasi ($\geq 75\%$);
- Soliq hisobotlarining o'z vaqtida topshirilishi;
- So'nggi 2 yil davomida soliq huquqbazarliklar mavjud emasligi;
- QQS bo'yicha chegirmalar (maksimal darajadan past).

Ishchi kuchi va mehnat barqarorligi

- Ishchilar soni ≥ 50 ;
- O'rtacha ish haqi mintaqaviy o'rtachadan yuqori bo'lishi;
- Ish haqi minimal mehnat haqidan yuqori bo'lishi;
- Xodimlar sonining yildan-yilga kamaymasligi.

Aktivlar holati

- Asosiy vositalar qiymatining kamaymasligi;
- Uzoq muddatli aktivlar qiymatining pasaymasligi;
- Kompaniya so'f foyda bilan faoliyat yuritayotgan bo'lishi.

Tashqi xavflar va shaffoflik

- Xorijiy ishtirokchilar mavjud emasligi;
- Xorijiy investitsiyalar ulushi 25% dan oshmasligi;
- Kompaniya "massoviy ro'yxat manzili"ga ega emasligi;
- Tashkilotga tegishli manzilda 10 dan ortiq yuridik shaxs ro'yxatdan o'tmagan bo'lishi;
- Kamida 12 oy avval ro'yxatga olingan bo'lishi.

1-rasm. Rossiya Federatsiyasida yuridik shaxslarning soliq majburiyatlariga rioya etish darajasi va asosiy moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari mezoni²

² Rossiya FNS metodikasi asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan vizual ko'rinish.

Tadbirkorlik subyektlarining fiskal xulq-atvorini baholashda soliq yuklamasi va intizom darajasi alohida o'rinn tutadi. Mazkur yo'nalishda birinchidan, QQS va foyda solig'i (boshqa soliqlar) bo'yicha to'lovlar mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan 75 foizdan past bo'lmasligi talab etiladi. Bu iqtisodiy faoliyatdan olinadigan fiskal foydaning adekvat darajada ekanligini bildiradi. Ikkinchidan, hisobotlarning o'z vaqtida topshirilishi hamda oxirgi ikki yil davomida soliq huquqbazarliklarining yo'qligi korxonaning qonunchilikka rioya qiluvchi subyekt ekanligini ko'rsatadi. Uchinchidan, QQS chegirmalarining haddan tashqari yuqori bo'lmasligi soliq manipulyatsiyalarining oldini oluvchi mexanizm sifatida baholanadi.

Korxona faoliyatining barqarorligi nafaqat moliyaviy natijalarda, balki inson resurslari bilan ishlashdagi yondashuvda ham namoyon bo'ladi. Mezonlar orasida ishchilar sonining 50 nafardan kam bo'lmasligi, ish haqi darajasining mintaqaviy o'rtachadan yuqori bo'lishi, shuningdek, eng kam ish haqidan yuqori to'lovlar amalga oshirilishi kabi indikatorlar mavjud. Bu korxonaning ishchi kuchiga sodiqligini, ijtimoiy mas'uliyatni va norasmiy bandlikdan voz kechganligini bildiradi. Xodimlar sonining yildan-yilga kamaymasligi esa tashkilotda o'sish va barqarorlik tendensiyasining mavjudligini ifodalaydi.

Kapital bazasining barqarorligi va rivojlanish salohiyati ham reytingda inobatga olinadi. Asosiy vositalar va uzoq muddatli aktivlar qiymatining pasaymasligi korxonaning eskirish jarayonlarini bartaraf qilishga intilayotganligini bildiradi. Ayniqsa, sof foyda bilan faoliyat yuritilayotgan subyektlar yuqori baholanadi. Bu mezonlar, bir tomondan, moliyaviy natijadorlikni o'lchasa, boshqa tomondan esa investitsion jozibadorlikni aniqlashda muhim o'lchov bo'lib xizmat qiladi.

Tadbirkorlik subyektining ro'yxatga olinishi, mulkchilik tuzilmasi va tashqi ishtirokchilar bilan aloqadorlik darajasi ham

ularning qonuniylik va xavfsizlik darajasini belgilaydi [9]. Shu bois reyting tizimi xorijiy investitsiyalar ulushi 25 foizdan oshmagan bo'lishini, xorijiy ishtirokchilar mavjud emasligini, shuningdek, "massoviy ro'yxat manzili"ga ega bo'lmaslik va 10 dan ortiq yuridik shaxs bir manzilda ro'yxatdan o'tmagan bo'lishini talab qiladi. Bular yuridik shaffoflikni ta'minlovchi va jinoyatga oid xavflarni kamaytiruvchi profilaktik indikatorlar sifatida qo'llaniladi. Tadbirkorlik subyekti kamida 12 oy avval ro'yxatdan o'tgan bo'lishi esa faoliyatning barqarorligidan dalolat beradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadi, 22 ta indikatorni o'z ichiga olgan mazkur reyting tizimi iqtisodiy faoliyatni har tomonlama baholash imkonini beradi [1]. Iqtisodiy barqarorlik, soliq intizomi, mehnat resurslari, aktivlar holati va yuridik shaffoflik kabi yo'nalishlar bo'yicha chuqr tahlilga asoslangan yondashuv tadbirkorlik subyektlarining barqarorligini aniq aniqlash, ularni rag'batlantirish hamda tavakkalchilik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi. Bunday tizimni amaliyatga joriy etish O'zbekistonda raqamli fiskal soliq boshqaruvining samaradorligini oshiradi, sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi va iqtisodiyotning ishonchli hamda barqaror segmentlarini ajratib ko'rsatishga imkon yaratadi.

Yuqorida tahlil qilingan 22 ta asosiy mezonlardan tashqari, reyting tizimining aniqligi, real hayotga mosligi va prognoz qobiliyatini oshirish maqsadida qo'shimcha indikatorlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu mezonlar ko'proq ehtiyoj chorasi sifatida xatarlarni minimallashtirish, shuningdek, rag'batlantiruvchi ballarni aniqlashda qo'llaniladi. Quyida ularning har biri bo'yicha metodologik sharh beriladi.

1. Soliq qarzi yo'qligi (oylik va yillik kesimda). Tadbirkorlik subyekti tomonidan har oy va yil yakunida soliq qarzining mavjud emasligi fiskal majburiyatlarning to'liq va vaqtida bajarilayotganini anglatadi. Bu holat

nafaqat intizom belgisi, balki moliyaviy mustahkamlik indikatoridir. Soliq qarzi mavjud korxonalar esa reytingda xavfli toifa sifatida ko‘riladi.

2. Xorijiy yuridik shaxs maqomiga ega emasligi. Mazkur mezon, ayniqsa, milliy xavfsizlik, sanksiyalar xavfi, va iqtisodiy suverenitetni saqlash nuqtai nazaridan muhim. Ba’zi yirik davlatlarda xorijiy yuridik shaxslar nazorat ostida bo‘lishi yoki maxsus tartibda baholanishi belgilangan. Shu sababli, faqat milliy yuridik maqomga ega subyektlar ijobjiy baholanishi mumkin.

3. Tashkilot yoki rahbarning 10 dan ortiq korxonada ishtirok etmasligi. Bir shaxsnинг ko‘plab yuridik shaxslar tuzilmalarida ishtirok etishi "massoviy ro‘yxatdan o’tkazish", nomzod rahbarlik, soliqdan bo‘yin tov lash kabi xavf omillarini yuzaga keltiradi. Shuning uchun rahbar yoki tashkilot a’zoligini cheklash ijobjiy ko‘rsatkich sifatida baholanadi.

4. Hisob raqamlar bo‘yicha bloklash qarorining mavjud emasligi. Bank hisob raqamlarining bloklanganligi odatda majburiyatlarni bajarmaslik, sud qarori yoki huquqiy muammo belgisi bo‘lishi mumkin. Bunday subyektlar moliyaviy jihatdan ishonchsz deb hisoblanadi. Aksincha, blokirovkaning yo‘qligi ularning faol va qonuniy moliyaviy aylanmaga ega ekanligini bildiradi.

5. Ishchilar sonining 5 dan kam bo‘lmasligi. Bu mezon mikro korxonalardan ajratib turuvchi element bo‘lib, kamida 5 nafar xodim mavjudligi iqtisodiy faollikning minimal darajasini belgilaydi. Natijada, norasmiy faoliyat yurituvchi korxonalar ushbu mezonga javob bermaganligi sababli, ularni aniqlash va rasmiylashtirishga yo‘naltirilgan siyosat samaradorligini oshirish mumkin bo‘ladi.

6. Ishchilar sonining pasayishi kuzatilmagan bo‘lishi. Mehnat resurslarining kamayishi faoliyat qisqarganligining belgisi sifatida qaraladi. Aksincha, ishchi sonining saqlanib qolishi yoki o‘sishi barqarorlik, kengayish va ijtimoiy mas’uliyat belgisidir.

Reyting tizimida bu mezon mehnatga barqaror munosabat sifatida ijobjiy baholanadi.

7. Soliq hisobotlarini to‘liq va aniqlashtirishsiz taqdim etishi korxonaning boshidan to‘g’ri va ishonchli hisobot berayotganidan dalolat beradi. Aniqlashtirishlar soni reytingda alohida manfiy ball sifatida hisobga olinishi mumkin. Shunday ekan, aniqlashtirishlarsiz va qo‘shimcha tekshiruvlarsiz taqdim etilgan hisobot yuqori darajadagi shaffoflik belgisi hisoblanadi.

8. Davlat shartnomalari bo‘yicha majburiyatlarni buzmagan bo‘lishi. Davlat buyurtmalari yoki xaridlarida qatnashuvchi tashkilotlarning shartnomalarini talablarini bajarishini ko‘rsatadi. Ushbu mezon ayniqsa davlat korxonalari va strategik sheriklar uchun muhim baholash omildir.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik darajasini aniqlashda sifat jihatdan har tomonlama yondashuvni shakllantirish maqsadida baholash tizimi asosiy va qo‘shimcha indikatorlar majmuasi asosida ishlab chiqilgan. Mazkur tizim orqali kompaniyaning moliyaviy holati, soliq intizomi, mehnat barqarorligi, aktivlar strukturasining dinamikasi, yuridik shaffofligi va institutsional xavfsizligi keng qamrovda tahlil qilinadi.

Umumiy reyting maksimal 30 ball asosida shakllantiriladi. Shundan 22 ball asosiy mezonlar asosida beriladi. Bunga moliyaviy ko‘rsatkichlar, soliq yuklamasi, hisobot intizomi, xodimlar soni, aktivlar holati va tashqi xavflar kabi ustuvor indikatorlar kiradi. 8 ball esa qo‘shimcha baholash indikatorlariga to‘g’ri keladi. Bu mezonlar ichida soliq qarzining mavjud emasligi, kompaniya rahbariyati ishtirokining cheklanganligi, bloklanmagan bank hisobvaraqlari, davlat shartnomalari intizomi va boshqa xavfsizlikka oid belgilar mavjud.

Mazkur tizim yuridik shaxslarni fiskal intizomga undash, ularning iqtisodiy faoliyatini raqamli ko‘rsatkichlar asosida baholash hamda soliq islohotlarining samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan. Bu reyting tizimi

nafaqat davlat soliq xizmatlari uchun monitoring vositasi, balki tadbirkorning o‘zi uchun ham o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga xizmat qiladigan samarali boshqaruv instrumenti hisoblanadi.

Shu tariqa, 30 ballik model asosida shakllantirilgan reyting kompaniya holatini raqamlı tarzda aks ettirish bilan birga, unga tegishli fiskal rag‘batlar yoki ehtiyyot choralarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, yuqori reytingga ega subyektlar uchun QSNI tezkor qaytarish, soliq tekshiruvlaridan ozod etish, imtiyozli kreditlar va davlat buyurtmalarida ishtirok etish kabi afzalliklar tatbiq etiladi. Bu esa halol, ochiq va mas’uliyatliz biznes yuritishga rag‘batlantiruvchi muhim mexanizmdir.

Soliq to‘lovchilarni reytinglash amaliyotida baholash natijalari yuridik

shaxslarning skoring mezonlari bo‘yicha to‘plagan umumiy ballari asosida shakllanadi. Ushbu yondashuv orqali har bir kompaniya fiskal xatti-harakatlari va moliyaviy ko‘rsatkichlari nuqtai nazaridan sinchkov tahlildan o‘tkaziladi. Natijada, yakuniy ballar yig‘indisiga ko‘ra ularning soliq intizomi va moliyaviy ishonchlilik darajasi belgilanadi.

Garchi Federal soliq xizmatining metodikasida rasmiy reyting toifalari ko‘zda tutilmagan bo‘lsa-da, amaliyotda shartli reyting tizimi keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tasnif yuridik shaxslarning soliq xavfi darajasini aniqlash va ularni fiskal nazoratga jalg etish zaruratini baholashda muhim instrument sifatida xizmat qiladi. Quyida Rossiya soliq amaliyotida qo‘llaniladigan shartli reyting toifalari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Rossiya soliq amaliyotida qo‘llaniladigan shartli reyting toifalarining tasnifi [11]

Ballar oraliq‘i	Shartli reyting toifasi	Tavsifi
26-30 ball	Yuqori ishonchlilik (A)	Korxona moliyaviy barqaror, soliq intizomi yuqori, huquqiy shaffoflik ta’minlangan. Monitoringdan ozod etilishi mumkin
20-25 ball	O‘rtacha ishonchlilik (B)	Tadbirkorlik faoliyati nisbatan barqaror, ammo ayrim moliyaviy yoki soliq zaifliklari mavjud. Soliq organlari tomonidan monitoring talab etiladi
10-19 ball	Past ishonchlilik (C)	Ko‘plab mezonlar bo‘yicha nomuvofiqlik mavjud. Kompaniya bilan ishlashda ehtiyyotkorlik zarur. Kreditlash va hamkorlik xavfli bo‘lishi mumkin
0-9 ball	Xavfli toifa (D)	Moliyaviy va soliq jihatdan nomuvofiq subyekt. Yuqori tavakkalchilik darajasiga ega bo‘lib, ustuvor nazorat obyektiga aylanishi mumkin

Ushbu reyting tasnifi ichki xizmatlar bilan cheklanmay, balki bank-moliya institutlari, davlat xaridlari tizimi, yirik kompaniyalar va auditorlik tashkilotlari uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Xususan, yuqori reytingga ega kompaniyalar quyidagi imtiyozli yondashuvlardan foydalanishi mumkin:

- QSNI 1-3 kun ichida tezlashtirilgan tartibda qaytarish;
- Soliq tekshiruvlaridan ozod etish;
- Davlat xaridlarida ishonchli kontragent sifatida ishtirok etish;

- Kredit va investitsiya olishda banklar tomonidan ijobiy baho olish.

Bu yondashuv soliq ma‘muriyatida tobora dolzarb bo‘lib borayotgan “Riskga asoslangan nazorat” konsepsiyasiga to‘liq mos keladi [12]. U yirik va faol kompaniyalar bo‘yicha soliq shaffofligini oshiradi, kichik va o‘rta biznes vakillarining esa o‘z reyting holatini tahlil qilib, kamchiliklarni tuzatishga intilishiga zamin yaratadi. Shu bois, baholash tizimida shakllanadigan reyting natijalari fiskal boshqaruvda differensial yondashuvni

amaliyatga tatbiq etuvchi asosiy vosita sifatida muhim o'rın tutadi. Bu esa o'z navbatida, soliq siyosatini segmentlashtirish, rag'bat va jazo mexanizmlarini aniqroq belgilash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar.

O'rganilgan tahlil va xalqaro amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, soliq to'lovchilar reytingi tizimi zamonaviy soliq ma'muriyatichiligining samarali vositasiga aylangan. Bu tizim fiskal siyosatda differential yondashuvni joriy qilish, halol biznesni rag'batlantirish va soliq xavfini minimal darajada boshqarish imkonini yaratadi. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlari bilan uyg'unlashgan reyting tizimi davlatning fiskal resurslarini yuqori xavfli subyektlarga manzilli yo'naltirishi, soliq organlari faoliyatining samaradorligini oshirishi va tadbirkorlik subyektlarining ixtiyoriy soliq to'lov intizomini mustahkamlashi hamda fiskal ochiqlik va ishonchlilikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati tomonidan ishlab chiqilgan yuridik shaxslarni baholash metodikasi mazkur tizimning kompleks va bosqichli yondashuvga asoslangan samarali namunasidir. Bu model orqali kompaniyalar moliyaviy-xo'jalik barqarorligi, soliq majburiyatlariga rioya qilishi, mehnat resurslari bilan ishslash sifati va

institutsional xavfsizligi kabi omillar asosida puxta baholanadi. Natijada, soliq to'lovchilarning ishonchlilik darajasiga ko'ra, ularni rag'batlantirish yoki ehtiyyot choralarini belgilash imkoniyati yuzaga keladi.

Shuningdek, reyting tizimining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ta'siri nafaqat soliq organlari, balki bank-moliya muassasalari, investorlar, davlat buyurtmalari tizimi va auditorlik amaliyotida ham sezilarli darajada kuchaymoqda. Bu holat reyting natijalarining amaliy ahamiyatini yanada oshirib, uni ko'p funksiyali boshqaruv mexanizmiga aylantiradi.

O'zbekiston sharoitida ushbu tizimning ma'lum amaliyotini tatbiq etilish orqali soliq siyosatini segmentlashtirish, fiskal intizomni rag'batlantirish, hamda tadbirkorlik subyektlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tizim orqali soliq to'lovchilarning raqamli profilini yaratish, ularning moliyaviy va fiskal faoliyatini avtomatik baholash hamda ilg'or amaliyotlar asosida rag'bat va jazo mexanizmlarini aniqlashtirishga erishiladi. Umuman olganda, soliq to'lovchilar reytingi tizimi nafaqat fiskal nazorat vositasi, balki barqaror iqtisodiy taraqqiyotga zamin yaratadigan, davlat va tadbirkorlik o'rtaсидаги ishonchni mustahkamlovchi, innovatsion boshqaruv mexanizmidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alm, J. (1999). *Tax Compliance and Administration*. Georgia State University. Available at: <https://www.gsu.edu>
2. Keen, M. and Slemrod, J. (2017). *Optimal tax administration*. Journal of Public Economics, 152, pp.133–142. <https://doi.org/10.1016/j.jpubeco.2017.06.003>
3. Федеральная налоговая служба России (2023). Методика оценки юридических лиц (утв. приказом ФНС России от 24.03.2023 г. № ЕД-7-31/181). Москва: FNS RF.
4. Федеральная налоговая служба России (2025). Изменения в Методике оценки юридических лиц от 27.01.2025. Available at: <https://www.nalog.gov.ru>
5. Mirziyoyev Sh.M. (2024). Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy qilish bo'yicha nutq. 5-yanvar, 2024. Yuz.uz. Available at: <https://yuz.uz/uz/news/tadbirkorlarning-barqarorlik-reytingi-joriy-qilinadi>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-39-sonli qarori, 23.01.2024-y. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish to'g'risida.

7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2022). Soliq kodeksi. Toshkent: Adolat nashriyoti. Available at: <https://lex.uz>
8. Tashkent State University of Economics (2023). *Fiscal Risk Management through Rating Systems in Emerging Economies. Internal Research Report.* TSUE, Tashkent.
9. Kuckertz, A. and Wagner, M. (2010). *The influence of sustainability orientation on entrepreneurial intentions – Investigating the role of business experience.* Journal of Business Venturing, 25(5), pp.524–539.
10. OECD. (2017). *Tax Administration 2017: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies.* OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/tax_admin-2017-en
11. FNS Russia (2023). Metodologiya reytingovoy otsenki. https://www.nalog.gov.ru/rn77/taxation/reference_work/
12. International Monetary Fund (IMF). (2018). *Tax Administration Diagnostic Assessment Tool (TADAT).* Washington, D.C. Available at: <https://www.imf.org/external/pubs/ft/TADAT>